

Xorazm viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar- iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi soni **2 079,5** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,7** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **17,1** ming nafarni, vafot etganlar **4,9** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **12,2** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **21** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **79** kishini, qayd etilgan nikohlar **5,9** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,1** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

2 079,5 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

17,1 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

4,9 *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

21 *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

79 *kishi*

Nikohlar soni

5,9 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

1,1 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Xorazm viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra **2 079,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **33,8** ming kishiga yoki **1,7** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **682,7** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **32,8%**), qishloq joylarda esa **1 396,8** ming kishi (**67,2%**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 037,8** ming kishini (**49,9%**), erkaklar esa **1 041,7** ming kishini (**50,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	2 045,7	2 079,5	101,7
Urganch sh.	156,5	158,0	101,0
Xiva sh.	100,5	102,1	101,6
Bog'ot	180,9	183,7	101,5
Gurlan	160,9	163,3	101,5
Qo'shko'pir	186,2	189,1	101,6
Urganch	220,6	226,0	102,4
Hazorasp	211,6	215,3	101,7
Tuproqqal'a	61,1	62,3	102,0
Xonqa	203,2	206,4	101,6
Xiva	159,2	161,9	101,7
Shovot	184,6	187,6	101,6
Yangiariq	125,9	127,9	101,6
Yangibozor	94,5	95,9	101,5

Xorazm viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **341,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,5** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **336,4** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Doimiy aholi soni \(jami, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(ayol, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(erkak, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Doimiy aholi soni \(qishloq, choraklik\)](#)


[Aholi zichligi \(jami, choraklik\)](#)

III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **17,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **16,6** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,5** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **4,9** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **17,1** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **8,8** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **8,3** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **5,9** ming kishini (**34,5%**), qishloq joylarida **11,2** ming kishini (**65,5%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **4,9** ming kishini, shundan erkaklar **2,7** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,1%**), ayollar **2,2** ming kishini (**44,9%**) va shahar joylarida **2,2** ming kishini (**44,9%**), qishloq joylarida **2,7** ming kishini (**55,1%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tug'ilganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(qiz bolalar, choraklik\)](#)

[Tug'ilganlar soni \(o'g'il bolalar, choraklik\)](#)

[Vafot etganlar soni \(jami, choraklik\)](#)


[Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablari \(jami, choraklik\)](#)

IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **5,9** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,0** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1,1** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etdi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **5,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,9** ming birlikni (**32,2%**), qishloq joylarida **4,0** ming birlikni (**67,8%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,4** ming birlikni (**36,4%**), qishloq joylarida **0,7** ming birlikni (**63,6%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Tuzilgan nikohlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Tuzilgan nikohlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(shahar, choraklik\)](#)

[Nikohdan ajralishlar soni \(qishloq, choraklik\)](#)

V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **8 641** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **8 620** kishini, xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar **21** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **10 612** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **10 533** kishini, xorijiy davlatlarga ko'chib ketganlar **79** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Xorazm viloyati	8 641	8 620	21	10 612	10 533	79
Urganch sh.	2 198	2 191	7	2 912	2 894	18
Xiva sh.	665	664	1	678	677	1
Bog'ot	193	193	-	329	325	4
Gurlan	192	192	-	507	495	12
Qo'shko'pir	349	349	-	614	612	2
Urganch	2 485	2 480	5	1 774	1 766	8
Hazorasp	397	393	4	776	775	1
Tuproqqal'a	429	428	1	424	409	15
Xonqa	244	244	-	531	529	2
Xiva	660	660	-	847	839	8
Shovot	308	305	3	518	514	4
Yangiariq	294	294	-	353	351	2
Yangibozor	227	227	-	349	347	2

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'chib kelganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

[Ko'chib ketganlar soni \(jami, choraklik\)](#)

VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuvi shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Tel:
(62)22-777-88(9070)

Manzil: Urganch shahar
Al-Xorazmiy ko'chasi,93-uy
